

DOI: 10.5281/zenodo.15549696
Link: <https://zenodo.org/records/15549696>

MAKTABGACHA TASHKILOTIDA TARBIYCHINING PEDAGOGIK FAOLIYTIDA YARATUVCHANLIK VA IJODIYLIK

Inomova Mahliyo Yusuf qizi, PhD,

"Maktabgacha tga 'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi" kafedrasi o'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Inomova@mail.ru

+998 99 621 92 27

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikning tutgan o'rni, ularning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi bilan bevosita bog'liqligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik jarayonda yaratuvchan yondashuvni shakllantirish usullari, tarbiyachining ijodiy salohiyatini oshirish omillari, metodik qo'llanmalar va innovatsion texnologiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, kuzatuv, so'rov nomda va tajriba asosida yaratuvchanlikning bolalar rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Maqola natijalarida pedagogik faoliyatda ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiyachi, pedagogik faoliyat, yaratuvchanlik, ijodiylik, maktabgacha ta'lim, innovatsion metodlar, ijodiy salohiyat, bola shaxsiyati, kasbiy kompetensiya, metodik yondashuv.

I. KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi va raqamli texnologiyalar asosidagi o'quv muhitining shakllanishi ta'lim jarayoniga yondashuvlarni tubdan yangilashni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, bu jarayon maktabgacha ta'lim tizimi uchun nihoyatda muhimdir, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar – shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, estetik did va ijodiy tafakkur shakllanishining eng muhim bosqichida turadi. Ushbu yosh davrida bolaning ichki dunyosini to'g'ri yo'naltirish, uning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bevosita tarbiyachining pedagogik faoliyatiga bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, estetik va ijtimoiy rivojlanishining asosi aynan pedagogning ularga taqdim etadigan tarbiyaviy muhitidan kelib chiqadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish, bolalarning qiziqish va salohiyatlarini to'g'ri anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachidan nafaqat kasbiy mahorat, balki yangicha fikrlay olish, kreativ yondashuv, pedagogik jarayonga yangilik kiritish, bolaning qiziqishlarini chuqur o'rganib, unga mos tarbiyaviy strategiyalarni ishlab chiqish kabi fazilatlar talab etiladi. Tarbiyachi nafaqat bolalar bilan ishlovchi o'qituvchi, balki ularning ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatadigan, ularning salohiyatlarini yuzaga chiqaradigan shaxs sifatida o'z rolini o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachilarga qo'yiladigan talablarga javob berish uchun, ular yangi pedagogik metodlarni o'zlashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va bolalar bilan ishlashda yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirish zarur. Bu esa nafaqat maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini

oshiradi, balki bola rivojlanishining har tomonlama muvaffaqiyatli bo‘lishiga ham imkon yaratadi.

Yaratuvchanlik va ijodiylik – bu faqat san’at sohalariga oid tushunchalar emas, balki pedagogik faoliyatning markaziy unsurlaridan biridir. Pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minalash, bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun tarbiyachi o‘zining pedagogik bilimlarini innovatsion usullar bilan uyg‘unlashtirib, har bir bolaga individual yondashuvni tanlashi, unga mos didaktik vositalarni qo‘llashi, o‘yin faoliyatini samarali tashkil etishi lozim. Ijodkor pedagog bola bilan ishlashda o‘zining individual pedagogik uslubini ishlab chiqish va shu orqali bolalar bilan o‘qitish jarayonini interaktiv, qiziqarli, ta’sirli va samarali o‘tishiga ko‘maklashadi. Bunday pedagogik faoliyat, o‘z navbatida, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning shaxsiy salohiyatini ochib berish va jamiyatda faol, ijtimoiy faollikka ega bo‘lgan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, uning yangicha pedagogik faoliyatga tayyorlanishi va bu jarayonda yaratuvchanlik va ijodiylikni qo‘llash, bugungi kunda eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirish, bu fazilatlarni maktabgacha ta’lim tizimining barcha bosqichlariga integratsiyalash va amaliyotda qo‘llash tizimni sifatli rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda yaratuvchanlik nafaqat bilim berishda, balki bolalarning estetik, aqliy va hissiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikning o‘rni, bu fazilatlarni rivojlantirish yo‘llari, amaliy yondashuvlar hamda ilg‘or tajribalar asosida olib borilayotgan ishlar tahlil etiladi. Bunda, yaratuvchan pedagog shaxsining shakllanishida zarur bo‘lgan omillar, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar ham yoritiladi. Maqolada, shuningdek, tarbiyachilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan metodik yondashuvlar, yangi pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi, tarbiyachining kasbiy rivojlanishi hamda innovatsion pedagogik metodlarning amaliy qo‘llanilishi muhokama qilinadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tizimi doirasida tarbiyachilarining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirishning o‘rni haqida chuqur tahlil va amaliy tavsiyalar taqdim etilishi maqolaning asosiy maqsadidir. Bu orqali maktabgacha ta’limning sifatini oshirish, bolalarning o‘ziga xos salohiyatlarini yuzaga chiqarish va jamiyatga foydali, intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qilish maqsad qilinadi.

II.METODLAR

Ushbu maqolani yozish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni o‘rganishga qaratilgan turli xil ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan va ishonchli bo‘lishi uchun bir necha metodlar uyg‘unlikda qo‘llanildi.

Avvalo, tahlil va sintez (analiz va sintez) metodidan foydalanildi. Bu orqali mavjud ilmiy adabiyotlar, zamonaviy pedagogik kontsepsiylar, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari, amaliy tavsiyalar o‘rganilib, yaratuvchanlik va ijodiylik tushunchalarining nazariy asoslari tahlil qilindi. Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida ushbu fazilatlarning qanday namoyon bo‘lishi, ularning kasbiy kompetensiyasi bilan qanday bog‘liq ekani haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi. Olingan ma’lumotlar sintetik tarzda umumlashtirildi va tadqiqot mavzusiga doir muhim omillar ajratib ko‘rsatildi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi amaliy jarayonni bevosita kuzatish orqali empirik kuzatuv metodidan foydalanildi. Pedagogik faoliyat davomida tarbiyachilarning mashg‘ulotlar vaqtida qanday ijodiy yondashuvlar qo‘llayotgani, bolalar bilan olib borilayotgan ishlarda qanday metod va vositalardan foydalanilayotgani o‘rganildi. Mashg‘ulotlardagi faoliyat, ayniqsa, bolalarning o‘yin, tasviriy san’at, dramatik mashg‘ulotlardagi ishtiroki, tarbiyachining ular bilan olib borayotgan ijodiy muloqoti alohida e’tiborga olindi. Ushbu kuzatuvlar natijasida pedagogik faoliyatda yaratuvchanlik va ijodiylikning real ifodasi tahlil qilindi.

Tadqiqotning muhim bosqichlaridan biri sifatida so‘rovnoma va intervyu metodidan keng foydalanildi. Bu bosqichda 20 nafardan ortiq tarbiyachi ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma savollari tarbiyachilarning ijodiy faoliyatga munosabati, yaratuvchanlikni rivojlantirishda duch kelayotgan muammolar, qo‘llayotgan metodik vositalar va innovatsion yondashuvlarga qaratilgan edi. Shuningdek, 5 nafar tajribali tarbiyachi bilan chuqur intervyu o‘tkazildi. Ularning fikrlari asosida ijodiy faoliyatga nisbatan shaxsiy qarashlar, pedagogik ish jarayonidagi ijodkorlik yondashuvlari tahlil qilindi. Bu esa tadqiqotda real hayotiy tajriba va subyektiv qarashlarni hisobga olish imkonini berdi.

Bundan tashqari, tajriba-sinov metodi (eksperiment) orqali pedagogik faoliyatda yaratuvchanlikning bolalarga qanday ta’sir qilishi o‘rganildi. Sinov sifatida bir guruh bolalar bilan tarbiyachining maxsus tayyorlangan ijodiy mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Mazkur mashg‘ulotlarda bolalarning darsga qiziqishi, erkin fikrashi, fantaziya qilish qobiliyati, yangi g‘oyalarni ilgari surish holatlari kuzatildi va baholandi. Tajriba bosqichining avvalgi va keyingi natijalari solishtirilib, muayyan ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi.

Shu bilan birga, tadqiqotda modellashtirish metodidan ham foydalanildi. Tarbiyachining ijodiy va yaratuvchan faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqildi. Ushbu modelda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, ijodiy faoliyat yo‘nalishlari, metodik vositalar, foydalaniladigan strategiyalar va kutilayotgan natijalar o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlandi. Bu model asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, pedagogik jarayonga tatbiq qilish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning uyg‘unligi tadqiqot mavzusining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Natijada, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirishga doir chuqur va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

III.NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarining pedagogik ishlarida yaratuvchanlik va ijodiylik muhim o'rinni tutadi. Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki har bir bolaning tabiiy qiziqishi, individual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi, ijodiy o'sishga yo'naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bugungi ta'lim tizimida tarbiyachilarining ijodiy yondashuvi nafaqat bola rivojlanishining muhim omili, balki ta'limning sifatini oshirish uchun ham zarurdir.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yaratuvchanlik va ijodiylikning mavjudligi tarbiyachining shaxsiy kompetensiyasi, kasbiy motivatsiyasi, pedagogik madaniyati va innovatsion yondashuvlarga tayyorligi bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, tarbiyachining yaratuvchanlik va ijodiylik darajasi uning kasbiy faoliyatining barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, mashg'ulotni muvaffaqiyatli tashkil etishi, ijodiy muhit yaratishi va bolalarning shaxsiy salohiyatini ochib berishi lozim. Tadqiqot natijalari, shuningdek, yaratuvchan yondashuvni pedagogik jarayonga qo'lllashning nafaqat bolalar uchun, balki tarbiyachilarining o'zlarini uchun ham foydali ekanligini tasdiqlaydi.

Empirik kuzatuvlar va so'rovnomalar asosida shunday xulosaga kelindi: ijodkor tarbiyachi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda yangicha usullardan foydalanishga intiladi, o'quv jarayonini monotondan holi, dinamik va qiziqarli tashkil etadi, har bir bola uchun mos usul va vositani tanlay oladi. Masalan, ijodiy mashg'ulotlar orqali bolalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, yangi g'oyalarni ilgari surish, muammoni ijodiy tarzda hal qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Tarbiyachi bolalar bilan ishlashda tasavvur qilish va estetik qabul qilishni rag'batlantiradigan texnikalardan foydalanadi, bu esa bolalar orasida go'zallikni anglash va estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday pedagogik yondashuv natijasida bolalarda mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish, muammoni ijodiy hal qilish, go'zallikni anglash va o'zini ifoda etish kabi zaruriy shaxsiy sifatlar rivojlanadi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy yondashuv bola shaxsini shakllantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, mashg'ulotlarda bolalar faolligi 27 foizdan 61 foizgacha oshgan, mustaqil g'oya bildirish holatlari esa ikki barobarga ko'paygan. Bu esa ijodiy yondashuvning samaradorligini, bolalarning fikrini erkin ifodalashga bo'lgan ishtiyoqini va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'yashini ko'rsatib beradi.

Tajriba-sinov jarayonida bolalar bilan amalga oshirilgan ijodiy mashg'ulotlar, ularda yangi g'oyalalar, o'yinlar va kreativ usullarni tatbiq etish orqali darsga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Bolalar orasida erkin fikrlash va tasavvur qilish qobiliyati aniq rivojlandi. Ularning ijodiy ishlarda faolligi oshib, yangi g'oyalarga ochiqligi va yaratgan ishlarida yuqori natijalarga erishishlari kuzatildi.

Shuningdek, intervyyu natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyachilarining bir qismi hali-hanuz ijodiy metodlar va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmagan, ayrim pedagoglar an'anaviy yondashuvlarga ortiqcha tayanmoqda. Bu holatni sabablarini o'rganganimizda, uslubiy qo'llanmalar yetishmasligi, ish yuklamasining ko'pligi va doimiy malaka oshirish imkoniyatlarining cheklangani ko'rsatilgan.

Tarbiyachilarning ba'zilarida yangi metodlarga nisbatan o'zgarishlarga qarshi turish, yirik pedagogik o'zgarishlarga qarshi ichki qarshilik mavjudligi aniqlangan. Bu esa yaratuvchanlikni rivojlantirishda tizimli yondashuv va uzlusiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvni muvaffaqiyatli amalgam oshirish uchun quyidagi muhim omillarni ta'kidlash mumkin:

1. Tarbiyachining ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan treninglar va metodik seminarlar tashkil etish. Bu tarbiyachilarning pedagogik yondashuvlarni yangilash, innovatsion metodlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion vositalar bilan ta'minlangan muhitni yaratish. Bu texnologiyalar va interaktiv vositalar bolalarning o'qish jarayoniga bo'lган qiziqishini oshiradi va o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

3. Ijodkor pedagoglarni rag'batlantirish va faoliyatini ommalashtirish orqali ilg'or tajribalarning keng yoyilishini ta'minlash. Bu nafaqat pedagoglarning professional o'sishiga, balki ta'lim tashkilotining sifatli rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

4. Tarbiyachilarning o'z ustida ishlashi va yangi pedagogik metodlarni o'rGANISHGA doimiy intilishi ularning ijodiy salohiyatini oshiradi. Pedagoglar uchun doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlari yaratish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy ta'lim metodlarini o'zlashtirish zarur.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy tarbiyachi — bu ijodiy fikrlovchi, yangilikka ochiq, bolalarning tabiiy salohiyatini rivojlanira oladigan shaxsdir. Uning pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni keng qo'llash orqali bolalarning har tomonlama kamolotiga zamin yaratiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatimizda intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faollikka ega avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

IV. XULOSA

O'tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylik muhim va ajralmas tarkibiy qism ekanligi aniqlandi. Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, jamiyatning ijodiy, fikrlovchi va tashabbuskor avlodga bo'lган ehtiyoji tarbiyachining faoliyatiga yangicha yondashuvni, xususan, yaratuvchanlik va ijodiy salohiyatni rivojlanirishni dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyachining ijodiy yondashuvi bolalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijodkor tarbiyachi o'quv-tarbiya jarayonini shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki bola shaxsining to'laqonli shakllanishiga xizmat qiluvchi ijodiy maydon sifatida tashkil eta oladi. Bunda bolalarning o'yin orqali o'zini ifoda etishi, tasavvur qilish, fantaziya va mustaqil fikrlash kabi qobiliyatları rivojlanadi. Bu esa bolaning keyingi bosqichdagı ijtimoiy, intellektual va ruhiy yetukligining asosini tashkil etadi.

Shuningdek, tarbiyachining pedagogik faoliyatida ijodiylikning yetishmasligi mashg'ulotlarda passivlik, bolalarda qiziqishning pasayishi, har bir bola uchun

individual yondashuvning yo‘qligi kabi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachining ijodiy salohiyatini shakllantirish va doimiy rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Ushbu tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolar — tarbiyachilarining ayrim hollarda an’anaviy usullardan chiqib keta olmasligi, ijodiy metodlarni yetarlicha o‘zlashtirmagani, uslubiy qo‘llanmalarining yetishmasligi — tizimli ravishda bartaraf etilishi zarur. Buning uchun tarbiyachilar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyatga joriy qilish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va metodik yordam tizimini takomillashtirish lozim.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachining pedagogik faoliyatida yaratuvchanlik va ijodiylikni rivojlantirish — nafaqat uning kasbiy mahoratini oshiradi, balki bolalarning ta’limga bo‘lgan munosabatini, shaxsiy o‘sishini va jamiyatda faol ishtirok eta oladigan fuqaro sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Shunday ekan, bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, amaliy tajriba almashinuvini kuchaytirish va pedagogik innovatsiyalarni keng tatbiq etish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2004.
2. Yo‘ldoshev J. Ta’lim yangilanish yo‘lida. – Toshkent, 2000.
3. G‘afurov A. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
4. Hojiahmedov M., Baxronov A. va boshqalar. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa, 2021.
5. Nuriddinov Sh. Innovatsion ta’lim metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Rahimov Z. Zamonaviy pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
7. Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 43 b.
8. Inovatov U., Mushmov A., Usmonov M., Inog‘omova U. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – B. 64–68.